
“BESH MUHIM TASHABBUS” TANLOVI G’OLIBLARI RAG’BATLANTIRILDI



Oltiariq tumanidagi Markaziy Madaniyat uyida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan “Besh muhim tashabbus” doirasida o‘tkazilgan ko‘rik-tanlovlar g‘oliblarini taqdirlashga bag‘ishlangan tantanali tadbir bo‘lib o‘tdi.

Viloyat hokimligi, xalq ta’limi boshqarmasi tomonidan tashkil etilgan taqdirlash marosimida Xalq ta’limi vazirligining “Beshta tashabbus – san‘at bilan”, “Beshta tashabbus – sport bilan” hamda “Beshta tashabbus – axborot-texnologiyalari bilan” yo‘nalishlarida o‘tkazilgan tanlovlarda g‘olib bo‘lgan maktablar jamoalarining 340 nafardan ziyod o‘quvchi va o‘qituvchilar munosib rag‘batlantirildi.

G‘oliblar orasida Qo‘shtepa tumanidagi 49-umumiy o‘rta ta’lim maktabida tashkil topgan “Gulg‘uncha” to‘garagining xor jamoasi, badiiy rahbari Xalq ta’limi a‘lochisi, “Shuhrat” medali sohibi Shukurullo Akbarov, 15-umumiy o‘rta ta’lim maktabining Basketbolchi qizlar jamoasi va 7-umumiy o‘rta ta’lim maktabining Basketbolchi yigitlar jamoalarining borligi quvonarlidir.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2021-11-19 20:49:20